

Birinchi iymon keltirgan bola



17:02 / 14.01.2019 17015

Arab qabilalarining yetakchisi hisoblangan Quraysh qabilasining boshlig'i Abu Tolib ibn Abdulmuttolibning uyida odatdagidan boshqacharoq holat hukm surmoqda. U kishining bolalari Tolib, Aqiyl, Ja'far, qizlari Foxita va Jumonalar ham nimanidir hayajon bilan kutayotganga o'xshaydilar. Xonadon bekasi Fotima binti Asad esa ichkarida. Doya xotin boshliq bir necha ayollar uning atrofida kuymalanishmoqda. Tashqarida nafaslarini ichiga yutib turganlarga chaqaloqning yig'isi eshitiladi. Ular yuzlarida mamnunlik va shukrona alomati ila bir-birlariga qarab qo'yishadi. Biroz o'tib, xonadon boshlig'iga yana bir o'g'il ko'rganligi haqida xabar berib, undan suyunchi olinadi. U shukrlar qilib, yangi mehmonga Ali degan ismni ixtiyor qiladi.

Yuqoridagi hodisa sodir bo'lgan sanada Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam o'ttiz yoshda edilar.

Ali Quraysh qabilasi rahbari o'g'li edi, u o'ziga xos sharoitda o'sdi. U o'z otasining yo'l boshchilik ishlari ichida ulg'ayib borar edi. Alining otasi Abu Tolib Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning otalari Abdullohning tug'ishgan akasi edi. Abu Tolib Qurayshga mol-mulki bilan emas, aql-zakovati bilan rahbar bo'lgan edi. U Qurayshdek katta va obro'li qabilaning yo'l boshchisi bo'lsa ham, o'zi kambag'al yashar edi.

Abu Tolibning kambag'alligi Makkada qahatchilik boshlanganida yana ham bilinib qoldi. U bolalarini boqishda, oila tebratishda mashaqqatga uchradi. Shunda uning qarindoshlari yordamga keldilar.

Muhammad sollallohu alayhi vasallam boshqa amakilarining oldilariga borib, Abu Tolibning iqtisodiy yetishmovchiligini tushuntirdilar va uning bolalaridan ba'zilarini bo'lib olib, boqishni taklif qildilar. Aqiylni Abu Tolibning o'ziga qoldirdilar. Ja'farni Abbas, Alini Muhammad sollallohu alayhi vasallam oldilar.

Shunday qilib, Ali o'z amakivachchasi, bo'lajak oxirgi payg'ambar Muhammad sollallohu alayhi vasallam va u zotning zavjalari Xadija binti Xuvaylidning qaramog'larida hayot kechira boshladi. O'sha vaqtda Ali endigina olti yoshga yetgan edi.

Tabiiyki, yosh bolaga o'zi yashayotgan oiladagi katta kishilarning tarbiyasi va shaxsiy xislatlari tez ta'sir ko'rsatadi. Bu masalada Alloh taolo Ali ibn Abu Tolibga katta baxt ato etgan edi. U kishiga Muhammad sollallohu alayhi vasallamning oilalarida ulg'ayish nasib etdi.

Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallamga Qur'oni Karimning birinchi oyatlarini nozil qilib, u zotni Payg'ambar qilib tanlab olganda Ali o'n yoshli bola edi.

Insoniyat tarixida eng ulkan o'zgarish yasagan bu hodisadan birinchilardan bo'lib xabar topgan, bolalardan birinchi bo'lib iymon keltirgan ham hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu bo'ldilar.

Alloh taolo tomonidan yuborilayotgan oyati karimalarni birinchilardan bo'lib eshitadigan, o'qib-uqadigan va amal qiladigan kishiga aylandilar. U kishi Nabiyy sollallohu alayhi vasallamdan ajramas, u kishining barcha ishlarida birga bo'lar edilar. Ular Islomga oid barcha narsalarni hech kimga bildirmay, sir saqlar edilar. Namozni ham berkinib o'qir edilar. Bu ishlarga faqatgina yangi musulmon bo'lganlar sherik bo'lishni boshlar edilar.

Islom dinining dastlabki soatlaridayoq uning muxlislaridan biriga aylangan Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu yoshliklaridan boshlab, qur'oniy tarbiya og'ushida o'sa boshladilar.

U kishi o'zlarining sof zehnlari ila Qur'oni Karim oyatlarini yod olar va bir yo'la sof qalblariga qur'oniy ta'limotlarni jo qilar edilar. Asta-sekin musulmonlarning soni ko'payib bordi. Yosh Ali yangi musulmonlarning hammasini va ularning Islomga kelishlarini xursandlik ila qarshilar edi.

Shu tarzda hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu pishiq-puxta musulmon bo'lib yetishib bordilar. U kishining bu xislatlari Alloh taolo tomonidan berilgan boshqa xislatlarga qo'shilib, kezi kelganda olamshumul ishlarni amalga oshirishda juda ham qo'l keldi.

«Hadis va hayot» kitobidan